Anjela Carterning «Nights at the Circus» romanida ham real va fantastik unsurlar bir-biriga singib ketgan holda tasvirlanadi. Roman qahramoni Fevvers o'zining sirli uchish qobiliyatiga ega ekanligini da'vo qiladi, biroq bu haqiqatmi yoki shunchaki illyuziyami, degan savol ochiq qoladi.[8] Fevvers haqiqatan ham g'ayritabiiy qobiliyatga egami yoki bu uning shaxsiy afsonasi, o'quvchi bunga aniq javob topolmaydi.

Magik realizm va postmodernizmning ushbu kesishgan nuqtalarida tarixiy voqelik va subyektiv tajriba, real dunyo va afsona, illyuziya va haqiqat o'rtasidagi noaniqlik kuchayadi. Postmodern adabiyot haqiqatni nisbiy va konstruksiya qilingan tushuncha sifatida ko'rsa, magik realizm bu g'oyani mifologik va mistik unsurlar orqali namoyon etadi. Natijada ikki janr o'quvchini haqiqat haqida yangi talqinlarni yaratishga undaydi.

Magik realizm janri an'anaviy realizm bilan mistik va g'ayritabiiy unsurlarni uyg'unlashtiruvchi adabiy yo'nalish bo'lib, uning ildizlari xalq og'zaki ijodi, mif va eposlarga borib taqaladi.[9] Folklor va mifologiya har qanday madaniyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali insoniyat dunyoni anglashga, haqiqatni tushuntirishga va o'z tarixini saqlab qolishga intilgan. Magik realizmning ko'plab asarlari o'z milliy folkloridan oziqlanadi va shuning uchun ham bu janr madaniy kodlarni ifodalash va tarixiy merosni badiiy shaklda qayta yaratish vositasi hisoblanadi.[10]

Folklor va magik realizm o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish uchun, avvalo, mif, epos va xalq afsonalarining magik realizmga ta'sirini tahlil qilish lozim. Ushbu elementlar har xil milliy adabiyotlarda turlicha namoyon bo'lsa-da, ular orasida tuzilmaviy va tematik jihatdan umumiyliklar mavjud.[11]

Mifologik strukturalarning magik realizmda aks etishi o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Magik realizmda miflar faqat folklor elementlari sifatida emas, balki voqelikni idrok etishning universal mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Bu jihat, ayniqsa, Gabriel Garsiya Markez, Haruki Murakami va boshqa yozuvchilarning asarlarida yaqqol ko'rinadi.

Haruki Murakami asarlarida ham mifologik strukturalar muhim ahamiyat kasb etadi. Uning «Kafka on the Shore» romanida shaxsning ichki ruhiy holati bilan tashqi dunyo o'rtasidagi bog'liqlik yapon shamanistik an'analari asoslangan mifologik hikoyalarga yaqin.[12]

Murakami asarlarida shaxsning ruhiy sayohati, tushlar orqali voqelikni idrok etish, parallel olamlarning mavjudligi va inson ongi bilan real dunyo o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishi Sharq mifologiyasining muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Yapon folklori va shamanistik e'tiqodlar Murakami asarlarida qahramonlarning mistik tajribalarini tushuntiruvchi elementlar sifatida namoyon bo'ladi.

Epos milliy tarixiy xotiraning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lib, magik realizmda milliy o'zlikni anglash, tarixni badiiy vositalar orqali qayta qurish va kollektiv xotirani saqlab qolish vazifasini bajaradi.[13] Eposning ko'plab qahramonlari g'ayritabiiy qobiliyatlarga ega bo'lsa-da, ularning hikoyalari real voqelik kontekstida tasvirlanadi. Bu magik realizmning haqiqat va afsonaning tabiiy uyg'unlashuvi tamoyiliga mos keladi. Ushbu janr eposdan sirkulyar vaqt tushunchasi, bashorat va inson taqdirining oldindan belgilanganligi, shuningdek, supernatural hodisalarning realistik uslubda tasvirlanishi kabi elementlarni qabul qiladi.

O'zbek xalq eposlari ham magik realizmga yaqin xususiyatlarga ega bo'lib, qahramonlarning g'ayritabiiy kuchlari, bashorat va sirli hodisalar bilan bog'liq voqealar realizm asosida tasvirlanadi. «Alpomish» dostonida qahramon bir necha yil davomida zindonda qolsa ham, hech qanday jismoniy o'zgarishga uchramaydi. Ushbu motiv epik qahramonlarning afsonaviy bardoshini aks ettirish bilan birga, vaqt va makon tushunchalarining nisbiyligini ifodalaydi.[14] «Go'ro'g'li» dostoni milliy tarix va xalq xotirasining afsonalar orqali qanday shakllanishini ko'rsatadi. Qahramonlarning epik jasorati va real tarix bilan bog'lanishi magik realizmda uchraydigan tarixiy voqelik va mistik elementlarning qorishib ketishi tamoyiliga mos keladi. «Rustamxon» dostonida qahramonning oldindan belgilangan taqdiri va afsonaviy jasorati tarixiy voqelikni mifologik tushuncha bilan uyg'unlashtiradi. Ushbu dostonida insonning g'ayritabiiy taqdiri va uning real dunyoda qanday namoyon bo'lishi masalasi ko'tariladi. O'zbek xalq eposlari magik realizm uchun mifologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ularda supernatural hodisalar, bashorat va tarixiy kechinmalar bir butun olam sifatida tasvirlanadi, bu esa magik realizmning xalq xotirasini saqlab qolish va tarixni badiiy talqin qilish usuli ekanligini ko'rsatadi.

Epos va xalq qahramonlari magik realizmga tarixiy voqelikni badiiy tahlil qilish, real va afsonaviy elementlarning uyg'unlashuvi va insonning g'ayritabiiy dunyo bilan bog'liqligini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuv orqali magik realizm milliy xotirani saqlab qolish, tarixni badiiy talqin qilish va haqiqatni yangi estetik usullarda aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Magik realizm va folklor o'rtasidagi bog'liqlik xalq og'zaki ijodi orqali shakllangan milliy adabiyotda yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir milliy adabiyot o'zining etnik va madaniy merosi bilan bog'liq holda rivojlanadi, shu sababli folklor elementlari magik realizm poetikasida haqiqat va afsonaning uyg'unlashishi orqali tasvirlanadi. Folklor, afsonalar va ertaklar magik realizmda kundalik hayotning g'ayritabiiylik bilan aralashishi tamoyilini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv milliy adabiyotda tarixiy xotira va madaniy kodlarni saqlash vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi.[15]

Nazar Eshonqul asarlarida o'zbek xalq folklori unsurlari magik realizm bilan uyg'unlashgan. «Uch farishta» romanida xalq e'tiqodlari, irreal tasvir va kundalik hayot uyg'unligi mavjud bo'lib, bu uslub orqali yozuvchi milliy mentalitetni badiiy shaklda ifodalashga erishgan.[16] Asardagi mistik unsurlar, bashoratli tushlar va taqdirning sirli yo'nalishi milliy e'tiqodlarning magik realizm poetikasida qanday namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

O'zbek xalq adabiyotida magik realizm bilan bog'liq folklor unsurlariga «Alpomish», «Go'ro'g'li» va «Rustamxon» dostonlarida duch kelish mumkin. Ushbu dostonlarda qahramonlarning irreal kuchlarga ega bo'lishi, bashorat va tush orqali oldindan belgilangan taqdirni bajarishi magik realizm tamoyillariga mos keladi. Shu sababli, xalq og'zaki ijodining

magik realizmga ta'siri nafaqat motivlar darajasida, balki mifologik tafakkurning adabiyotdagi aks sadosi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Magik realizm folklor elementlarini qayta ishlash va yangi adabiy ko'rinish berish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Italo Calvinoning «Italian Folktales» to'plami italyan xalq og'zaki ijodiga asoslangan holda magik realizm tamoyillaridan foydalangan holda qayta talqin qilingan.[17] U asarida afsonalar va xalq ertaklarini zamonaviy tafakkur bilan boyitib, ularni badiiy ifoda vositasiga aylantirgan.

Angela Carterning «The Bloody Chamber» asari qadimgi Yevropa afsonalari va ertaklarini qayta yoritib, magik realizm uslubida yozilgan.[18] U ertaklarda mavjud zulmat, qo'rquv va irreal elementlarni realizm asosida ifodalash orqali yangi badiiy metod yaratgan. Carterning yondashuvi orqali xalq ertaklarining psixologik va sotsial tahlili amalga oshirilgan bo'lib, bu magik realizmning inson ongi va jamiyat tushunchalarini yangi badiiy shaklda aks ettirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Magik realizm folklor va mifologik motivlardan foydalanish orqali milliy identifikatsiya, tarixiy xotira va madaniy kodlarni saqlashga xizmat qiladi. Bu janr nafaqat adabiy tajriba, balki milliy o'zlikni anglash vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Magik realizm va folklor o'zaro birikkan holatda milliy madaniyatlarni asrash, tarixiy kechinmalarni badiiy ifodalash va xalq dunyoqarashini anglash imkonini beradi.

Magik realizm adabiyotning muhim estetik yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning kino san'atiga ta'siri tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, Stiven Kingning asarlari asosida yaratilgan filmlarda ushbu janrning o'ziga xos talqini kuzatiladi. King hikoyalarida realistik tafsilotlar va kundalik hayot manzaralari g'ayritabiiylik bilan uyg'unlashib, voqelikning chegaralari kengayadi.[19] Bu yondashuv uning asarlariga asoslangan filmlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Stiven King asarlari asosida yaratilgan filmlar orasida «The Green Mile» (1999), «The Shining» (1980), «Doctor Sleep» (2019), «It» (2017) va «The Dark Tower» (2017) kabi ekran asarlari magik realizm elementlarini o'zida mujassam etgan.[20] Ushbu filmlar orqali kundalik hayot ichida g'ayritabiiy voqealar tabiiy qabul qilinadi, haqiqat va mistika o'rtasidagi chegaralar yo'qoladi. Bu esa Kingning realizm va dahshat janrlarini birlashtirish uslubining vizual san'atda qanday namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

King asarlarida magik realizmning asosiy xususiyatlaridan biri – kundalik hayot va mistik elementlarning tabiiy uyg'unligi bo'lib, bu jihat uning ekranizatsiyalarida ham saqlanib qoladi. Uning asarlarida g'ayritabiiy hodisalar mantiqiy izoh talab qilmaydi, balki o'z-o'zidan mavjud bo'lgan haqiqat sifatida qabul qilinadi. «The Green Mile» filmida bosh qahramon Jon Koffi g'ayritabiiy shifobaxsh kuchga ega bo'lsa ham, bu hodisa film davomida hech qanday ilmiy yoki fantastik tushuntirishga ega emas, balki mutlaq haqiqat sifatida tasvirlanadi.[21] Filmning vizual yechimi ham ushbu magik realizm xususiyatini mustahkamlaydi – yorug'lik, sekin kadr va kameraning muayyan obyektlarga qaratilishi orqali Jon Koffi obraziga sirli, deyarli ilohiy maqom beriladi. Bu uslub orqali film realistik muhit bilan g'ayritabiiylikni uyg'unlashtirib, King asarlariga xos mistik atmosferani yaratadi.

«The Shining» (1980) va «Doctor Sleep» (2019) filmlarida esa magik realizm inson ongi va xotirasi bilan bog'liq jihatlarida namoyon bo'ladi. Ushbu filmlarda haqiqat va illyuziya o'rtasidagi chegaralar o'chiriladi, real va metafizik tajribalar bir butun olam sifatida tasvirlanadi.[22] Mehmonxona muhiti sirli hodisalarga to'la bo'lib, o'quvchi va tomoshabin bu

hodisalar real yoki tasavvur mahsuli ekanligini aniqlay olmaydi. Denni Torrensning «shining» qobiliyati voqelikdan ajratilmaydi, balki uning dunyoni idrok etish shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan magik realizmning asosiy tamoyillaridan biri – g'ayritabiiy hodisalarning realistik tafakkur orqali qabul qilinishi bu filmlarda aniq ko'zga tashlanadi.

Ushbu ekranizatsiyalarning narrativ tuzilishi ham magik realizmning kino san'atiga xos usullaridan foydalanadi. Masalan, «Doctor Sleep» filmida vaqt tushunchasi izchil emas, voqealar bir-biriga bog'langan holda kutilmagan burilishlar bilan ifodalanadi.[23] King asarlarida vaqt ko'pincha siklik yoki metafizik hodisa sifatida talqin qilinadi, bu esa film syujetida ham aks etgan. Ushbu filmning narrativ usuli postmodern adabiyot va magik realizm o'rtasidagi bog'liqlikni kinematik muhitda qanday aks ettirish mumkinligini ko'rsatadi.

«It» (2017) filmida esa Pennivayz obrazi bolalarning qo'rquvlarini vizual shaklda ifodalaydi. King romanlarida qo'rquv va irreal hodisalar inson ongining ichki kechinmalari bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Filmida Pennivayz real hayotdan ajratilmaydi, aksincha, u bolalarning ong ostidagi xotiralari va travmalarining vizual ifodasiga aylanadi.[24] Filmning vizual uslubida ham magik realizmning o'ziga xos belgilarini ko'rish mumkin: ranglar va yorug'likning o'zgarishi, harakatlanuvchi kameralar va illyuziyalar orqali reallik va xayoliy dunyo o'rtasidagi chegaralar yo'q qilinadi.

Stiven King asarlarida va ularning ekranizatsiyalarida kundalik hayot va mistika o'zaro uyg'unlashgan holda tasvirlanib, magik realizmning asosiy jihatlaridan biri bo'lmish haqiqat va illyuziyaning tabiiy ravishda qorishib ketishi namoyon bo'ladi. Uning romanlari va ularning kino talqinlari inson ruhiyatining sirli tomonlarini ochib beruvchi, g'ayritabiiylikni realistik muhit ichida tasvirlaydigan badiiy tajriba sifatida qaraladi.

Kinematografiya vositasida magik realizm turli vizual va narrativ usullar orqali ifodalanadi. Bu usullar g'ayritabiiy hodisalarning real dunyoda tabiiy ravishda namoyon bo'lishini ta'minlaydi va haqiqat hamda illyuziya o'rtasidagi chegaralarni yo'q qiladi. Stiven Kingning asarlari asosida yaratilgan filmlar bu usullardan samarali foydalanib, magik realizmning kinematografik talqinini ochib berishda muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, vizual metafora va yorug'lik manipulyatsiyasi yordamida g'ayritabiiy hodisalarning real dunyodagi ta'siri kuchaytiriladi. «The Green Mile» filmida Jon Koffining shifo jarayonlari yorug'likning asta-sekin o'zgarishi orqali tasvirlanadi. Yorug'lik bu yerda nafaqat vizual effekt sifatida, balki personajning mistik qobiliyatlarini ta'kidlovchi badiiy element sifatida ishlatiladi. Film davomida Jon Koffi real hayotga to'g'ridan-to'g'ri mos kelmaydigan, lekin tasvirlangan muhitda mutlaq haqiqat sifatida qabul qilinadigan timsol sifatida namoyon bo'ladi.[25]

Ikkinchidan, surreal tasvirlar va montaj texnikasi orqali xotiralar va haqiqatning bir-biriga singib ketishi namoyon bo'ladi. «Doctor Sleep» filmida vaqt va makon oralig'idagi chegaralar butunlay yo'qoladi, turli vizual o'tishlar yordamida xotira, tush va real voqelik bir butun ko'rinishda aks ettiriladi. Ushbu uslub Kingning asarlariga xos bo'lgan vaqtning siklik va nisbiy xususiyatlarini kino orqali ifodalash imkonini beradi.[26]

Uchinchidan, subyektiv kameralar va harakatlanuvchi kadrlar magik realizm estetikasini ta'minlashning yana bir samarali usuli hisoblanadi. «It» filmida Pennivayz obrazi bolalarning qo'rquvlarini turlicha talqin qilish orqali aks ettiriladi. Kamera rakurslari va harakatlanish texnikasi orqali Pennivayz turli shakllarda namoyon bo'ladi, bu esa har bir qahramonning ong ostidagi qo'rquvlariga bog'liq ravishda dahshat manzaralarini yaratadi.[27]

To'rtinchidan, reallik va xayol o'rtasidagi noaniqlik orqali magik realizmning asosiy tamoyillari ta'kidlanadi. «The Shining» filmida mehmonxona ichidagi tasvirlar ba'zan ong osti jarayonlari sifatida, ba'zan esa real voqelikning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Ushbu usul film tomoshabinga reallikni subyektiv idrok qilish imkonini berib, King asarlaridagi tafakkurning ko'p qatlamli tuzilishini kinematik tarzda aks ettiradi.[28]

Beshinchidan, simvolizm va mistik belgilar King ekranizatsiyalarida muhim o'rin tutadi. «The Dark Tower» filmida ramziy obyektlar va belgilar magik realizmni chuqurroq tahlil qilish vositasi sifatida ishlatiladi. Ushbu filmida King ijodiga xos bo'lgan parallel olamlar, inson taqdiri va g'ayritabiiy dunyo bilan o'zaro bog'liqlik mavzulari vizual usullar orqali aks ettiriladi.

Stiven Kingning asarlari asosida yaratilgan filmlar magik realizmning kinematografik talqinini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu filmlar haqiqat va mistika o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilish, inson ongining cheksiz imkoniyatlarini yoritish va dahshat hamda g'ayritabiiylik orqali voqelikning ko'p qatlamli ekanligini ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Magik realizm estetikasining kino orqali ifodalangan bu shakllari tomoshabinni haqiqat va illyuziyaning mutlaq uyg'unligi borasida o'ylashga undaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda magik realizm va horror janrlarining adabiyot va madaniyatga ta'sirini tahlil qilish uchun turli yondashuvlar qo'llanildi. Adabiy-tahliliy yondashuv – Magik realizm va horror janrining xususiyatlari, ularning postmodernizm bilan bog'liqligi va ushbu janrlarning adabiy namunalardagi tasviri tahlil qilindi. Qiyosiy metod – Stiven Kingning asarlari Gabriel Garsiya Marquez, Jorj Luis Borges, Salman Rushdi, Toni Morrison, Anjela Carter va Italo Calvino kabi yozuvchilarning asarlari bilan qiyoslandi. Falsafiy yondashuv – Magik realizm va horror janrlarining metafizik va psixologik asoslari, ularning inson ongiga ta'siri Freudning «Uncanny» nazariyasi va Jungning arxetiplar nazariyasi asosida tahlil qilindi. Kinematografik tahlil – Stiven King asarlari asosida suratga olingan filmlarda magik realizm unsurlarining qanday aks etgani tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, magik realizm va horror janrining uyg'unlashuvi adabiyotda va kinematografiyada o'ziga xos yangi badiiy uslub yaratadi. Reallik va mistikaning uyg'unligi – Magik realizm va horror janrida g'ayritabiiy hodisalar real dunyo ichida tabiiy holat sifatida qabul qilinadi. Masalan, «Yolg'izlikning yuz yili» romanida yoki «The Green Mile» filmida g'ayritabiiy elementlar oddiy haqiqat sifatida tasvirlanadi. Haqiqat va illyuziya chegaralarining buzilishi – Postmodernizm va magik realizm adabiyotda tarix va xotira, voqelik va tasavvur o'rtasidagi chegaralarni yo'q qiladi. Bu jihat Jorj Luis Borgesning hikoyalarida yoki Anjela Carterning asarlarida yaqqol ko'rinadi. Psixologik va metafizik qo'rquvning badiiy talqini – Magik realizm va horror qo'rquvni inson ongining chuqur qatlamlari bilan bog'laydi. Bu jihat Stiven King asarlarida va ularning kino talqinlarida aks etgan. Folklor va mifologik asoslar – Magik realizm xalq eposlari va mifologik tushunchalar bilan bog'langan. Masalan, Haruki Murakami asarlarida yoki o'zbek xalq eposlarida vaqt va makon nisbiyligi, bashorat va taqdir g'oyalari ko'p uchraydi. Kinematografik ifoda – Stiven Kingning «The Shining», «Doctor Sleep», «It» va «The Dark Tower» kabi ekranizatsiyalarida magik realizm va horror unsurlari vizual jihatdan yoritiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, magik realizm va horror janri inson tafakkurining chuqur qatlamlarini ochib beruvchi kuchli badiiy vositadir. Adabiyot va kinematografiyada ushbu janrlarning sintezi qo'rquvni faqat tashqi dahshat emas, balki inson ruhiyati va tarixiy xotirasi bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida talqin qilishga imkon yaratadi.

Magik realizm va postmodernizm o'rtasidagi bog'liqlik adabiyotda muqobil haqiqatlar yaratish va tarixni qayta talqin qilish imkonini beradi. Rushdiening «Midnight's Children» romani yoki Borgesning hikoyalari ushbu yondashuvni aks ettiradi. Stiven King esa ushbu uslubni horror janri bilan uyg'unlashtirib, inson ruhiyatining ichki qo'rquvlarini badiiy ifoda etadi. King asarlarining kino talqinlari ham magik realizm estetikasi bilan bog'liq. «The Green Mile» filmida g'ayritabiiylik inson taqdiri bilan uyg'unlashgan, «The Shining va Doctor Sleep» filmlarida esa metafizik qo'rquv va ongsiz xotiralar orqali yangi badiiy tajriba yaratilgan.

Natijada, magik realizm va horror janrining uyg'unlashuvi voqelikni yangicha badiiy talqin qilishga xizmat qiladi. Bu sintez adabiyot, kinematografiya va san'atda haqiqat va illyuziya o'rtasidagi chegaralarni buzish orqali yangi ijodiy imkoniyatlarni ochadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, magik realizm va horror janrining uyg'unlashuvi adabiyot va kino san'atida yangi badiiy tajribalarni yaratmoqda. Ushbu sintez inson ongi va tafakkurining noaniq jihatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Stiven King asarlari va ularning ekranizatsiyalari ushbu jarayonning yorqin namunalaridan biri bo'lib, u orqali haqiqat va illyuziyaning o'zaro ta'sirini ko'rish mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun magik realizm va horror janrining boshqa adabiy an'analardagi ifodasi, ularning madaniy kodlar bilan bog'liqligi yanada chuqur o'rganilishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Hutcheon, Linda. *A Poetics of Postmodernism*. Routledge, 1988.pp52
2. McHale, Brian. *Postmodernist Fiction*. Methuen, 1987.pp87
3. Hassan, Ihab. *The Postmodern Turn: Essays in Postmodern Theory and Culture*. Ohio State University Press, 1987.pp89
4. Borges, Jorge Luis. *Ficciones*. Grove Press, 1962.pp114
5. Baudrillard, Jean. *Simulacra and Simulation*. University of Michigan Press, 1981.pp89
6. Márquez, Gabriel García. *One Hundred Years of Solitude*. Harper & Row, 1967.pp277
7. Hutcheon, Linda. *A Poetics of Postmodernism*. Routledge, 1988.pp74
8. Carter, Angela. *Nights at the Circus*. Chatto & Windus, 1984.pp157
9. Zamora, Lois Parkinson, and Wendy B. Faris. *Magical Realism: Theory, History, Community*. Duke University Press, 1995.pp8
10. Bowers, Maggie Ann. *Magic(al) Realism*. Routledge, 2004.pp73
11. Eliade, Mircea. *Myth and Reality*. Harper & Row, 1963.pp32
12. Murakami, Haruki. *Kafka on the Shore*. Vintage International, 2002.pp143
13. Bakhtin, Mikhail. *The Dialogic Imagination*. University of Texas Press, 1981.pp112
14. Mirzayev, To'ra. *O'zbek adabiyotida tasviriy san'at (2023)*:pp98.
15. Bowers, Maggie Ann. *Magic(al) Realism*. London & New York: Routledge, 2004.pp134
16. Eshonqul, Nazar. *Maymun yetaklagan odam*. Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2004.pp73
17. Calvino, Italo. *Italian Folktales*. Pantheon Books, 1980.pp54
18. Carter, Angela. *The Bloody Chamber*. Gollancz, 1979.pp119
19. Lang, Cody. *Magical Realism in Transnational Cinema*. York University, 2020.pp3
20. Gajdošová, Veronika. *Influence of Stephen King's It on Literature and Popular Culture*. Charles University, 2019.pp12
21. Petersen, Ankie. *Magic Realism in Cinema*. Universiteit Utrecht, 2013.pp14
22. Floss, Jeff. *Magical Realism and Film: A Look at Midnight's Children*. SUNY Buffalo, 2017.pp22
23. Gee, Felicity. *Magical Realism and the Moving Image*. Palgrave Macmillan, 2017.pp51
24. Lang, Cody. *Magical Realism in Transnational Cinema*. York University, 2020.pp66

25. Yeo, Richard. The Role of Supernatural Elements in Contemporary Horror Literature. University of Melbourne, 2020.pp38
26. Gee, Felicity. Magical Realism and the Moving Image. Palgrave Macmillan, 2017.pp45
27. Gajdošová, Veronika. Influence of Stephen King's It on Literature and Popular Culture. Charles University, 2019.pp12
28. Floss, Jeff. Magical Realism and Film: A Look at Midnight's Children. SUNY Buffalo, 2017.pp29
29. Ochilov, Ulugbek Sayfulloevich. "Naturalistic Images In The Novel «Sister Carrie» By The American Writer Theodore Dreiser." *Scientific reports of Bukhara State University* 4.3 (2020): 179-183.
30. Ochilov, U. S. "REALIZM OQIMINIG BIR QISMI BO'LGAN MAGIK REALIZM VA UNING TAMOYILLARI." *European Journal of Interdisciplinary Research and Development* 13 (2023): 208-211.
31. Очилов, Улуғбек Сайфуллоевич. "АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ «ОБИД КЕТМОН» ҚИССАСИДА КОЛХОЗ МАВЗУСИ ВА УНИНГ СОЦИАЛИСТИК РЕАЛИЗМ АДАБИЙ МЕТОДИГА ХОСЛИГИ." *Gospodarka i Innowacje*. 23 (2022): 155-157.
32. Очилов, Улуғбек Сайфуллоевич. "АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ВА ТЕОДОР ДРАЙЗЕРНИНГ АСАРЛАРИДА НАТУРАЛИЗМ ТАМОЙИЛЛАРИ." *EDITORIAL BOARD* (2022): 650.
33. Очилов, Улуғбек. "Stiven Kingning «Doktor Uyqu» asarida mistik va real dunyo o'rtasidagi chegaralar." *Лингвоспектр* 1.1 (2025): 31-36.
34. Очилов, Улуғбек Сайфуллоевич. "АМЕРИКА ЁЗУВЧИСИ ТЕОДОР ДРАЙЗЕРНИНГ «БАХТИҚАРО КЕРРИ» («SISTER CARRIE») РОМАНИДА НАТУРАЛИСТИК ОБРАЗЛАР НАТУРАЛИСТИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ В РОМАНЕ АМЕРИКАНСКОГО ПИСАТЕЛЯ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «СЕСТРА КЕРРИ» NATURALISTIC IMAGES IN THE NOVEL «SISTER CARRIE» BY."
35. Ochilov, Ulugbek. "Magik Realizmning «It» Asarida Real Va Mistik Dunyolar o'rtasidagi Chegaralari". *Lingvospekttr*, vol. 2, no. 1, Mar. 2025, pp. 145-8, <https://lingvospekttr.uz/index.php/Ingsp/article/view/399>.
36. padmin, U. O. "Supernatural Powers And Human Struggles In Stephen King's 'Doctor Sleep'". *Texas Journal of Philology, Culture and History*, vol. 40, Mar. 2025, pp. 1-7, <https://zienjournals.com/index.php/tjpch/article/view/5996>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).